



YPX xodimining talabi qonuniymi?

2-betda o'qing



Qonunda bor, amalda yo'q...

3-betda o'qing

INSON va qonun

www.adolatmarkazi.uz [telegram.me/hudud24official/](https://t.me/hudud24official) facebook.com/hudud24official/

2023-YIL
14-MART
SESHANBA

№ 10 (1370)


www.hudud24.uz

@adolat_nashrlari



"ADOLAT" milliy
huquqiy axborot
markazi nashrlariga
obuna bo'ling!

"Adolat
nashrlari"
telegram
kanalida
kuzating!



2023-yil 13-mart kuni O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sud majlisida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi-ning "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy Qonuni loyihasi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi referendumini o'tkazish haqida"gi qarori (ilovasi bilan) O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiqligini aniqlash to'g'risidagi masala ko'rib chiqildi.

KONSTITUTSIYAVIY SUD REFERENDUM BO'YICHA QAROR QABUL QILDI

Unda Konstitutsiyaviy sud raisi Mirzo-Ulug'bek Abdusalomov Konstitutsiyaviy sud qarorini o'qib eshittirdi.

Konstitutsiyaviy sud qaroriga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining 2023-yil 10-martda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy Qonuni loyihasi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi referendumini o'tkazish haqida"gi qarori (ilovasi bilan) O'zbekiston

Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq deb topildi.

Konstitutsiyaviy qonun loyihasini referendumga qo'yishga monelik qiluvchi holatlar aniqlanmadi. Konstitutsiyaviy qonun loyihasini referendumga qo'yish Konstitutsiyaga muvofiq deb topildi.

Konstitutsiyaviy sud qarori Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatiga yuboriladi.

M. KOMILOVA,
O'ZA

QISQA SATRLARDA

Halok bo'lgan harbiy xizmatchilar oila a'zolari ijtimoiy qo'llab-quvvatlanadi

"Vatan himoyasi va el-yurtimiz tinchligi yo'lida halok bo'lgan harbiy xizmatchilar va xodimlar oila a'zolarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident farmoni qabul qilindi

Farmonga ko'ra, 2023-yil 1-apreldan:

- ✓ halok bo'lgan harbiy xizmatchi (xodim) oila a'zolariga biryo'la beriladigan nafaqa marhumning oxirgi egallagan lavozimi bo'yicha maoshi va harbiy (maxsus) unvoni maoshi yig'indisining 150 baravari miqdorida belgilanadi;
- ✓ harbiy xizmatchilarning (xodimlarning) davlat majburiy shaxsiy sug'urtasi doirasida harbiy xizmatchi (xodim) halok bo'lganda to'lanadigan sug'urta summasi BHMning 200 baravari miqdorida belgilanadi.

2023-yil 1-maydan:

- ✓ oilaning mehnatga layoqatsiz har bir a'zosisiga bo'quvchisini yo'qotganlik pensiyasi pensiyani hisoblab chiqish uchun olinadigan pul ta'minotining (ish haqining) 50 foizi miqdorida belgilanadi;
- ✓ oila a'zolari (ota-onasi, turmush o'rtog'i, 23 yoshga to'lmagan farzandlari) daromadlar qaysi oyda olingan bo'lsa, o'sha oyda har bir oy uchun mehnatga haq to'lash eng kam miqdorining 3 baravari miqdoridagi daromadlar bo'yicha jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'idan ozod etiladi;
- ✓ belgilangan tartibda turarjoyga muhtoj deb tan olingan taqdirda, turarjoy bilan birinchi navbatdagi tartibda ta'minlanadi.

2023-yil 1-iyundan:

- ✓ halok bo'lgan harbiy xizmatchining (xodimning) farzandlari maktabgacha ta'lim muassasalarida bepul tarbiyalanishi, shuningdek, professional va OTMd davlat granti asosida qo'shimcha kvotalar bo'yicha ta'lim olishi ta'minlanadi;
- ✓ halok bo'lgan harbiy xizmatchining (xodimning) ota-onalariga yiliga 2 marta temir yo'l va havo yo'lovchilar transportidan bepul foydalanish huquqi beriladi.

2023-yil 1-dekabr gacha quyidagi qonun loyihalari ishlab chiqiladi:

- ✓ "Faxriylar to'g'risida"gi;
- ✓ "Harbiy xizmatchilar maqomi va ularni ijtimoiy himoya qilish to'g'risida"gi;
- ✓ "Harbiy xizmatchilarning pensiya ta'minoti to'g'risida"gi.

@huquqiyaxborot



ADLIYA odamlar orasida

Adliya vazirligi rahbariyati tomonidan respublikamizning olis va chekka hududlarida fuqarolar va tadbirkorlar uchun sayyor qabullar o'tkazilib, ularning muammolarini tinglash, joyida hal qilish choralari ko'rish an'ana tusini olgan.

Davomi 8-betda

2 "MADAD" JAVOB BERADI

YPX XODIMINING TALABI QONUNIYMI?



– Yo'lda opamga tegishli transport vositasini boshqarib ketayotgan vaqtida YPX xodimi mashinani to'xtatdi. Xodim mendan opamga tegishli bo'lgan transport vositasini boshqarish huquqini beruvchi ishonchnomani ko'rsatishimni so'radi. Ishonchnoma bo'lmagan taqdirda, u menga nisbatan ma'muriy bayonnoma rasmiylashtirishini aytdi. Aytingchi, inspektorning xatti-harakatlari qonuniyimi?

– 2019-yil 9-sentabrdagi "O'zbekiston Respublikasida notariat tizimini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident farmoniga ko'ra, 2019-yil 1-oktabrdan transport vositasini yaqin qarindoshlar o'rtasida majburiy tartibda notarial ishonchnomalarni rasmiylashtirmasdan boshqarishga ruxsat berilgan. Transport vositasi egasining yaqin qarindoshlari transport egasining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha sug'urta polisida ko'rsatilgan bo'lishi kerak. Qarindoshlik darajasi transport vositasi egasining talabiga binoan ko'rsatilishi mumkin.



Savollarga "Madad" NNT
bosh mutaxassisi
Nodirbek IKROMOV
javob berdi

Gaz hisoblagich muammosini
QANDAY XAL QILAY?

– YANGI qurilgan uyimizga gaz hisoblagich o'rnatmoqchi edim. Gaz idorasi xodimi menga gaz hisoblagichni o'z hisobimdan olib o'rnatishimni aytdi. Aytingchi, gaz idorasi xodimining talabi qonuniyimi?

– Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 28-martdagi "2002–2004-yillarda uy-joy fondini gazni hisobga olish priborlari bilan jihozlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorining 4-ilovasida tasdiqlangan "Gazni hisobga olish priborlarini sotib olish, ularni kvartiralarda va yakka tartibdagi uylarda o'rnatish va ulardan foydalanish tartibi to'g'risida"gi nizomning 23-bandiga asosan "O'ztransgaz" aksiyadorlik kompaniyasi tomonidan sotib olingan gazni hisobga olish priborlari aholi kvartiralariga va yakka tartibdagi uylarga o'rnatiladi, keyinchalik ularning qiymati iste'molchi tomonidan kafolatli muddat mobaynida, lekin gazni hisobga olish priborlari o'rnatilgan kundan boshlab ko'pi bilan 5 yilda to'lanadi.

Ushbu nizomning 24-bandida iste'molchi tomonidan gazni hisobga olish priborlari qiymatini to'lash shartlari "O'ztransgaz" aksiyadorlik kompaniyasining hududlararo unitar korxonalari bilan aholi o'rtasida gazni hisobga olish priborlarini o'rnatish, unga texnik xizmat ko'rsatish va undan foydalanish yuzasidan tuzilgan shartnomada belgilanishi qayd etilgan. Shunga ko'ra, Sizdagi vaziyatda gazni hisobga olish priborlari (schyotchik) qiymati Siz va hududga o'rtasidagi shartnomada asosida bo'lib-bo'lib to'lanadi.



– Turmush o'rtog'im bilan 2020-yilda ajrashganman. Shu paytdan boshlab 2 nafar voyaga yetmagan farzandimga aliment to'lab kelaman. Yaqinda Rossiya ishlagani ketmoqchiman. Lekin davlat ijrochisi xorijiy mamlakatga chiqishimga taqiq qo'ygan. Aytingchi, qanday qilib bu taqiqdan chiqib, xorijga ketishim mumkin? Buning qonuniy yo'li bormi?

XORIJGA CHIQISHIMGA
TAQIQ QO'YILGAN...

– Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 6-oktabrdagi "Alimentlarni oldindan to'lash, shuningdek, aliment to'lash majburiyatini ta'minlash bo'yicha garov shartnomasini tuzish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qaroriga ko'ra, aliment to'lashi shart bo'lgan shaxs doimiy yashash uchun yoki uch oydan ortiq muddatga chet davlatga ketayotganida qonunga muvofiq o'zi ta'minot berishi lozim bo'lgan aliment oluvchilar bilan aliment to'lash to'g'risida kelishuv tuzishi shart.

Aliment to'lash to'g'risida kelishuvga erishilmagan taqdirda, manfaatdor shaxs aliment miqdorining pul bilan to'lanadigan qat'iy summada belgilanishi va alimentni bir yo'la to'lash to'g'risida yoki aliment evaziga muayyan mol-mulkni berish yoxud alimentni boshqa usulda to'lash to'g'risidagi talab bilan sudga murojaat qilishga haqli. Voyaga yetmagan bolalar ta'minoti uchun alimentlar oldindan to'langan yoki aliment to'lash majburiyatini ta'minlash uchun garov shartnomasi tuzilgan bo'lsa, shaxs aliment to'lash to'g'risida kelishuv tuzish majburiyatidan ozod etiladi. E'tibor bering! Siz xorij mamlakatiga chiqish uchun sobiq turmush o'rtog'ingiz bilan notarial tasdiqlangan kelishuv tuzishingiz yoki aliment summasini oldindan bira to'la to'lashingiz yoki garov shartnomasi tuzishingiz lozim.


CHET EL
FUQAROSI HAM
TUSI
O'ZGARTIRILGAN
OYNA UCHUN
TO'LOV QILADIMI?

– Xorijiy mamlakat fuqarosiman. Yaqinda O'zbekiston Respublikasi hududini shaxsiy transportim orqali kesib o'tmoqchiman. Mashinamning oynalari tusi o'zgartirilgani uchun ham to'lov qilishim kerakmi?

– Adliya vazirligi tomonidan 2018-yil 29-noyabrda 3091-raqam bilan ro'yxatdan o'tkazilgan ichki ishlar vazirligi, Davlat bojxona qo'mitasi, Moliya vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmatining "Xorijiy davlatlarning oynalari tusi o'zgartirilgan (qoraytirilgan) yengil avtotransport vositalarining O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtincha kirishi va tranzit harakatlanishi uchun majburiy yig'implarni undirish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qo'shma qaroriga ko'ra, nizom tasdiqlangan.

Mazkur nizomga ko'ra, oynalarining tusi o'zgartirilgan xorijiy davlatga ro'yxatga olingan avtotransport vositalari O'zbekiston Respublikasi hududiga kirish paytida bojxona xizmati xodimlari tomonidan oynalari tusi o'zgartirilgan (qoraytirilgan) yengil avtotransport vositalari haydovchilari majburiy yig'implarni to'lashi lozimligi haqida ogohlantiriladi. Haydovchilar tomonidan bojxona postida tashkil qilingan bank kassalariga qilingan to'lovlar asosida bank xodimlari tomonidan majburiy yig'im qabul qilinganligi haqida xorijiy davlatlarning oynalari tusi o'zgartirilgan (qoraytirilgan) yengil avtotransport vositasining ro'yxatdan o'tkazish davlat raqami belgisini ko'rsatgan holda kvitansiya rasmiylashtiradi.

Uning bir nusxasi haydovchiga beriladi. O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtincha kirgan va tranzit harakatlanayotgan xorijiy davlatlarning oynalari tusi o'zgartirilgan (qoraytirilgan) yengil avtotransport vositalari yo'l harakati xavfsizligi xodimlari tomonidan to'xtatilganda, ular haydovchilardan majburiy yig'implar undirilganligini nazorat tartibida tekshirish uchun kvitansiya nusxasini ko'rish huquqiga ega. Xorijiy davlatdan kirib kelish davomida Sizdan undirilgan bir martalik majburiy yig'im asosida avtotransport vositangizning old va orqa yon oynalarining tusini o'zgartirib yurish huquqiga ega hisoblanasiz.



TOSHKENT

QONUNDA BOR, AMALDA YO‘Q...

FUQARO R.I.ning Budjetdan tashqari pensiya jamg'armasi Shayxontohur tuman bo'limi tomonidan pensiya tayinlashda ish staji to'liq hisobga olinmaganidan norozi bo'lib yo'llagan murojaati Toshkent shahar adliya boshqarmasi tomonidan o'rganib chiqildi.



Aniqlanishicha, pensiya jamg'armasi Shayxontohur tuman bo'limining pensiya tayinlash haqidagi 2022-yil 30-avgustdagi qaroriga muvofiq fuqaro R.I.ga yoshga doir pensiya tayinlangan. Ammo pensiya jamg'armasi tuman bo'limining pensiya va nafaqa tayinlash bo'yicha komissiyasi tomonidan fuqaro R.I.ga pensiya tayinlashda komissiyaning 2018-yil 19-iyundagi qaroriga asosan uning 1996-yilning 1-oktabridan 2005-yilning 1-dekabriga qadar "Juma mexanika ta'mirlash zavodi" AJda ishlagan davridagi ish staji hisobga olinmasligi qayd etilgan.

Shuningdek, mazkur komissiya tomonidan fuqaroga pensiya tayinlashda uning 1978-yil 1-iyuldan 1981-yil 28-aprelgacha Lenin kolxozida, 1983-yil 10-avgustdan 1984-yil 28-fevralgacha Rossiya Federatsiyasining Saratov shahridagi "Aviat-

siya" zavodida va 1989-yil 15-fevraldan 1989-yil 14-iyulgacha Saratov shahridagi "Priboromexanicheskiy" zavodida, 2005-yil 14-martdan 2005-yil 31-dekabrgacha "Respublika ta'lim markazi"da, 2007-yil 18-dekabrda 2008-yil 17-aprelgacha "Viktoriy va Manzura" advokatlik firmasida, 2008-yil 22-fevraldan 2009-yil 20-oktabrgacha "Vaqt-imkoniyat" advokatlik firmasida ishlagan ish davri umumiy ish stajiga qo'shib hisobga olinmasligi ma'lum qilingan.


Biroq, "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi qonunning 42-moddasiga asosan mehnat stajini tasdiqlash tartibi belgilangan bo'lib, unga ko'ra, mehnat daftarchasi ish stajini tasdiqlovchi asosiy hujjat hisoblanadi. Qonunchilikdagi bu norma Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 8-sentabrdagi 252-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Davlat pensiyalarini tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida"gi nizomning 59-bandida ham o'z aksini topgan.

Fuqaro R.I.ning mehnat daftarchasida uning yuqoridagi tashkilot va firmalarda ishlagani aniqlanib ko'rsatilgan.

Fuqaro manfaatida pensiya jamg'armasi Shayxontohur tuman bo'limiga nisbatan Toshkent tumanlararo ma'muriy sudiga shikoyat ariza kiritildi. Sudning hal qiluv qaroriga asosan pensiya jamg'armasining tuman bo'limiga fuqaro R.I.ning mehnat daftarchasida qayd qilingan mehnat faoliyati davrlarini umumiy staj hisobiga qo'shib pensiya tayinlash majburiyati yuklatildi.

Sherzod SHARIPOV,

Toshkent shahar adliya boshqarmasi mas'ul xodimi



BUXORO

PESHKU tuman tibbiyot birlashmasi xodimi Aminova birlashma ma'muriyatining xatti-harakatlaridan norozi bo'lib, tuman adliya bo'limiga murojaat qilgan.



Organish natijasida, TTB rahbari xodimdan hech qanday rozilik xati olmasdan, hatto ogohlantirmasdan xirurg hamshirasi lavozimidan og'zaki buyruq asosida boshqa ishga ya'ni registratura hamshirasi lavozimiga o'tkazgani va bu bilan Mehnat kodeksi talablari buzilgani aniqlandi.


Vaholanki, Mehnat kodeksining 92-moddasida "Boshqa doimiy ishga o'tkazishga (xodimning mehnat vazifalarini o'zgartir-

ishga) - unga boshqa mutaxassislik, malaka, lavozimga oid ishini topshirishga faqat uning roziligi bilan yo'l qo'yilishi mumkin. Agar obyektiv sabablarga ko'ra, mehnat shartnomasida belgilab qo'yilgan mehnat vazifasi doirasida ishini davom ettirish mumkin bo'lmasa, ish beruvchi xodimga mutaxassisligi va malakasiga muvofiq keladigan ishini (xodim bajarayotgan ishiga yoki egallab turgan lavozimiga nomuvofiq bo'lsa, mutaxassisligi bo'yicha bir muncha kam malaka talab etiladigan boshqa ishini), bunday ish bo'lmagan taqdirda esa, - korxonada mavjud bo'lgan boshqa ishini taklif etishi shart", deb belgilangan. TTB tomonidan Mehnat kodeksining 96-moddasidagi "Boshqa ishga o'tkazish haqida buyruq chiqarish uchun xodim bilan tuzilgan mehnat shartnomasiga kiritilgan o'zgarishlar asos bo'ladi. Boshqa ishga o'tkazish haqidagi buyruq mehnat shartnomasiga kiritilgan o'zgarishlarning mazmuniga to'la muvofiq holda chiqariladi va xodimga ma'lum qilinib, tilxat olinadi", degan talabi qo'pol ravishda buzilgan.

Holat yuzasidan aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan tuman tibbiyot birlashmasi rahbari nomiga taqdimnoma kiritildi va Aminovning o'z lavozimiga qayta tiklanishi ta'minlandi.

Abdulaziz JO'RAYEV,

Peshku tuman adliya bo'limi yetakchi maslahatchisi



SURXONDARYO

DENOV tumanidagi "Buyuk kelajak" mahallasi Turkiston ko'chasida yashovchi fuqaro O'. Ishmanov Bobotog' davlat o'rmon xo'jaligida 2019- yil 12-sentabrdan 2022-yilning 28-sentabriga qadar eksport ekoturizm bo'yicha mutaxassis lavozimida ishlagan. 2022-yilning yanvar oyidan sentabr oyigacha oylik maoshini hamda foydalanilmagan mehnat ta'tili puli kompensatsiya tariqasida o'rmon xo'jaligi tomonidan to'lab berilmaganidan norozi bo'lib, shu masalada amaliy yordam berishni so'rab, Uzun tuman adliya bo'limiga murojaat qilgan.

O'RMONCHINING**MAOSHI UNDIRILDI**

Aniqlanishicha, fuqaro O'. Ishmanov haqiqatan ham 2019-yil 12-sentabrdagi buyruqqa asosan o'rmon xo'jaligiga "Eksport va ekoturizm bo'yicha mutaxassis" vazifasiga ishga qabul qilingan. Fuqaro bilan tuzilgan mehnat shartnomasi tarafdorlarning kelishuviga binoan 2022-yil 10-oktabrda bekor qilingan. O'. Ishmanovga 2022-yilning yanvar oyidan sentabr oyigacha oylik ish haqi hamda foydalanilmagan mehnat ta'tili uchun kompensatsiya tariqasida to'lanishi lozim bo'lgan pul mablag'i Bobotog' davlat o'rmon xo'jaligi tomonidan to'lab berilmagani ma'lum bo'ldi.

Vaholanki, Mehnat shartnomasi bekor qilindanda xodimga tegishli ish haqini ish beruvchi tomonidan to'lash muddatlari Mehnat kodeksining 110-moddasi ikkinchi qismi ikkinchi bandida "mehnat shartnomasini bekor qilishi haqida ish beruvchini ogohlantirishi shart bo'lmagan xodimga, - ishdan ketgan kunining ertasidan kechiktirmasdan to'lanishi lozimligi", Mehnat kodeksining 161-moddasining uchinchi qismida esa mehnat shartnomasi bekor qilinganda xodimga tegishli barcha summalarni to'lash ushbu kodeksning 110-moddasiga muvofiq ravishda amalga oshiriladi, deb mustahkamlangan.

Shuningdek, foydalanilmagan ta'tillar uchun pullik kompensatsiya to'lash tartibi Mehnat kodeksining 151-moddasi birinchi qismida "Mehnat shartnomasi bekor qilinganda xodimga foydalanilmagan barcha yillik asosiy va qo'shimcha ta'tillar uchun pullik kompensatsiya to'lanadi", deb belgilangan.

O'rganish natijalariga ko'ra, tuman adliya bo'limi qarzdor Bobotog' davlat o'rmon xo'jaligi hisobidan fuqaro O'. Ishmanovning qonuniy manfaatini ko'zlab unding foydasiga to'lanmagan oylik ish haqi hamda foydalanilmagan mehnat ta'tili uchun kompensatsiya pulini undirib berish yuzasidan fuqarolik ishlari bo'yicha Uzun tumanlararo sudiga da'vo arizasi kiritildi. Sudning hal qiluv qaroriga asosan qarzdor hisobidan to'lanishi lozim bo'lgan pul mablag'i undirildi.

Boburbek Boborajab AMONZODA

Uzun tuman adliya bo'limi bosh maslahatchisi

4 XOTIRA

O'lis Dehqonobodning Beliboyli-Oqtosh qishlog'i tog' to'shida; to'rt tomon boqsan-

giz botiningiz ajib bir hisdan gupirib ketadi. Qalb tan qafasiga sig'maydi. Bu hayrat ekanini shunda sezasiz. Bu olamlar ichra o'z olamingiz, go'yo. Sezasi-u, boshqalarga ulashgiz, qo'shiq qilgiz, kuyga solgiz keladi!

Beliboyli-Oqtosh miyonasi-da qad turarkansiz, Akmal Tosh she'riyati shunday dunyoga kelgan, degan o'y quvib o'tadi...

Bugun ayriliq iztirobi yod-nomaga evrilib, qog'ozga to'kilayotgan shu tobda hamkasbim haqida o'y larkanman, garchi bor-yo'g'i uch yilgina bir tom ostida ishlasak-da, ko'ngillarimiz ko'rinmas bir uch tugunli pishiq rishta bilan bog'langani bilindi...

Bu rishtaning bir uchida she'r, bir uchida men, o'rtasida esa shoir bor.

Akmal aka uch qo'nim orasida yashadi: Dehqonobod - Nishon - Toshkent.

Akmal aka qisqa, ammo mazmunli umrida shunday yashadi: Hayrat - shoir - she'r.

Akmal aka dunyosidan shunday ketdi: She'r - shoir - hayrat.

Akmal aka she'rlarini ikki bog'larni (kitob) qilishga ulgurib, uchinchisiga "Xavotir" deya nom qo'ygandi.

Taqdirning ishini ko'ring: Hayrat - xavotirga tushib, baribir hayratga do'ndi...

Tuprog'ingiz yengil bo'lsin, do'stijon. Diydor qiyomatga qoldi!

Asliddin ALIMARDON,

"Inson va qonun" gazetasi hamda "Huquq va burch" jurnali bosh muharriri

"Shamoldek erkin qo'y"



HAYRAT – shoir
haybati ibtidosidir.
Hayrat – shoir
haybati intihosidir.
Hayrat – shoir – she'r.
She'r – shoir – hayrat.

Insonning joni xuddi daraxt shoxida ilinib turgan bargga o'xshaydi. Qattiqroq shamol tursa, yulini tushadi.

Qatorimiz kam bo'ldi, do'stlar. Shoir jo'ramiz Akmal Tosh omonatini topshirdi. Odamning ishongisi kelmaydi. Kutilmagan shumxabar. Kamtar, kamsuqum yigit edi. Afsus!

Xudoyim!

Akmal, do'stim, yaxshi boring! Sizni Oллоh rahmatiga olsin! Yaqinlaringizga O'zi sabr bersin!

Do'stlar, bir-biringizni qadrlang. Kiprikday omonatimiz.

Akmal Tosh bilan telegramda juda kam gaplashgan ekanmiz. 2020-yil 4-dekabr kuni "Shoir ovozi" nomli she'rini menga yuborib: "Bir ko'ring-chi, ma'qul bo'lsa, kanalga qo'yvoring", degan ekan. U, adashmasam, Yozuvchilar uyushmasining telegram kanalini nazarda tutgandi o'shanda. Ammo hozir kanalni ko'rsam, she'rni bermagan ekanmiz. Mana, o'sha bitikni endi e'lon qilyapman.

Fozil FARHOD,

Yozuvchilar uyushmasi matbuot kotibi

SHOIR OVOZI

Shavkat Rahmon xotirasiga

Yondim,
Olov bo'ldim so'zlarni quchib,
Har nafas musulmon millatim dedim.
Ne qilay, borim shu, tuslanolmadim,
O'zbekning oddiy bir shoiri edim.
Shunday yashadi u,
Egmadli boshin,
Turkiy asov ruhi she'rlarga ko'chdi.
Dashtu dalalarda ulg'aygan isyon,
Darddan titrab turgan qalblarni quchdi.
Kuylar oqayotir
Mag'rur va sokin,
Qaynoq tuyg'ularda jilva – kamalak.
Mardonavor ovoz hayqirib turar,
Urrib turar unda ulkan bir yurak.
Yolg'on she'r soyasi bunda ko'rinmas,
Qarsaklar makriga chap bergan so'zlar.
Rubobiy ohanglar,
Qilichdek nafas
Yovlarning boshiga kulfat yog'dirar.
Yelkamda qanotlar ulg'ayar shunda
Hayratlar cho'qqisi qarshimda peshvoz.
Yorug' xayollarga cho'mgancha ruhim
Shamollar kaftida ayladi parvoz.
Qarshimda bir chaman – musavvirona,
Turfa iforlardan mastona ko'ngil.
Elning yuragiga talpingan ovoz
Ilohiy chashmaga tutashgan manzil.
Iymonga yuz burib,
Orni avaylab,
Mahkumlik zindonin parchalar botir.
Takkor kurashlarda toblangan haqso'z
Ezgulikni mangu kuylashga qodir!

ruhingni bir pas,,

Inson umri go'yoki bir shamdek. Yonishi ham, o'chishi ham oson. Inson umri bir lahzalik... Ikki eshik orasi. Umr - yo'ldir, Allohdan Allohgacha...

"Jo'nab ketdi olis qishloqqa"

Har kuni ertalab ko'zlari kulib bizga peshvoz chiqadigan, yelkasidegi sumkaga go'yoki hayotning og'ir yukini solib olgandek ohista qadam bosadigan ajoyib hamkasbimiz Akmaljon endi oramizda yo'q.

Nafaqat kuchli jurnalist, balki tanilgi shoir, samimiy do'st, iymon va insof ko'chalarini eng buyuk manzil, deb o'ylagan va bunga har doim e'tiqod qilgan 38 yoshli yigitdan unutilmas xotiralar, yaxshi so'z, go'zal she'rlar qoldi.

Tahririyatda Akmaljon bilan hamnafas, hamfikir edik. Ovozini balandlatib gapirganini biror marta eshitmadik. U ulug' daryolar sokin oqqanidek, juda sokin edi. U shu qadar madaniyatli va kamtarin ediki, biror marta maqtanganini eslay olmaymiz. Chiroyli ijodi, dilbar she'rlarida yashardi, yashayapti ham...

U kengliklarni qo'msab yashadi. Kaftdek yuragiga bu katta keng shahar torlik qilgandek go'yo... She'rlarini o'qib, yurak tez-tez ura boshlaydi. She'rlarida uning ruhi namoyon...

*Qalbimni ochgandim eshiklari lang,
Kurtakdek ochildi mitti mo'jiza.
Ruhimni quchgandi faqat bitta rang,
Qarshimda faqat ishq - boshqasi zarra.
Naylardan portladi bir kuyki ozor,
Otdagi umrlar surat kabi jo'n.*

*Majnunlar tentidi, sindi dildevor,
Darning bo'y-bastini ochib bergan kun.*

U hech narsaga loqaydlik bilan qaramadi. Qarashlari, qadamlari xasta odamning emas, matonatli yurak

urishi edi. Ruhini tushkunlikka bermadi, qalamiga suyandi, so'zning ko'ziga tik qaray oldi.

U orzuning qanoti sinmasligiga, Yaratgan uni qo'llashiga, hayotning har lahzasi go'zal ekanligiga ishonib yashadi.

Uning ijodida ona yurt sog'inchi, mehr, hayot manzaralari bilan birga buyuk ajdodlarimizga ehtirom ham ustuvor edi. Ulug' mutafakkir shoir Alisher Navoiyga bag'ishlangan she'rini, uni qasida desak arziydi, juda boshqacha ilhom bilan bir necha kun ruhi baland holda yozganiga barchamiz guvohmiz. Telegram guruhimizda muloqot yetti kun har tong Navoiyga atalgan shu she'r bilan boshlanardi. Hazrat Navoiyni bizdan ko'ra ko'proq o'qigan va bizdan ko'ra teranroq anglagan hamkasbimizga havasimiz kelardi. Navoiy dahosiga munosib satrlar:

*...Kimki yaxshilikdan halovat topgay,
Ikki dunyo ichra barokat topgay.
Ajab, saxovatda tengsiz Navoiy,
Himmatga chorlovchi pirsiz, Navoiy.*

Akmaljonning xotirasi qalbimizni sog'inchga o'rab, yorug' xayollarga bog'lab turadi. Uning aytilmagan so'zlarini yurak-yurakdan his etib, sog'inib yashaymiz. Alvido deyshga tilimiz bormaydi. Ammo u o'zi yozganidek:

*"Kelajakni yolg'iz qoldirib,
Jo'nab ketdi olis qishloqqa..."*

Marusa HOSILOVA,

"Inson va qonun" muxbiri

Beozorlik timsolida iz qoldirganday...

Soir Akmal Tosh Dehqonobodning bir tomoni tog', bir tomoni qir-adirdan iborat Beliboyli qishlog'idan. Haybatli tog'u tosh, bepoyon dalalar shoirning tabiatida kamtarlik, kamgaplik, halimlik, beozorlik timsolida iz qoldirganday.

Akmal og'ir-bosiq edi, lekin beparvo emasdi. O'zlikka daxldor masalalarda hammaning oldida tushib jar solmasa-da, doim o'zining fikri bor edi. Akmalning sokinligi, xayolchanligi Inson haqidagi iztiroblar tufayli edi. Buni she'rlaridagi tadjida ko'ramiz. Uning lirik qahramoni "Tayoqqa suyangan xayolchan bola"dan vaqt o'tib "Shaffof orzular-da sarg'ayib qopti", degan achchiq xulosali Insonga aylanadi.

Otabek SAFAROV,
jurnalist

Jamoadoshlikdan og'a-inilikka...

Inson ulg'aygani sari zavqlari o'lib boradi - avval maza qilib o'qigan kitoblari qiziqmasdek, hayajonlanib ko'rgan kinolari oddiy tomoshadek tuyulib qoladi. Buning sabablari ko'p. Shu sabablardan biri bu kishining qadrdonlari, do'stlari bir-bir dunyoni tark etishidir...

Uch kun avval biz uchun ham shunday qayg'uli holat yuz berdi. Jamoadoshimiz, og'amiz, yetuk jurnalist va iste'dodli shoir Akmal Toshev bu yorug' olamni tark etdi.

Akmal Toshev sokin fe'li, odamni eshitishtni biladigan, zarur paytda kerakli maslahatu nasihatlar qiladigan inson edi. "Edi" deb yozishga qo'l bormaydi. Negaki kechagina

yonimizda yurgan odam endi yo'q... Iymon-e'tiqodda o'rnak bo'lar darajadagi inson Akmal Toshev bilan ikki yildan ortiq bir jamoada, bir xonada ishladik. Lekin biror marta sen-menga bormadik. Fe'lim og'ir, murosasiz bo'lsam ham Akmal aka bunga ko'z yumar, murosasiz bilan masalaning mohiyatini menga tushuntirardi. Ming afsuski, shunday insondan ayrildik.

Nazmda juda iste'dodli, qalami o'tkir bo'lsa ham, biror marta katta da'volar qilmas, jim, sokingina bo'lib she'rlarini yozib yuraverardi.

Og'amizning xotirasi qalbimizda yashaydi.

Furqat ALIMARDON,
jurnalist

Advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyaning amal qilishi va advokatlik maqomi tugatilgan shaxslar:

T/r	F.I.Sh.	Litsenziya sanasi va raqami	Adliya boshqarmasining buyrug'i sanasi va raqami
1	Xalmetov Baxtiyor Kamiljanovich	2012-yil 22-avgustdagi TN 001582	23.02.2023, 54-um-son
2	Xasanov Asadulla Shayqulovich	2007-yil 30-apreldagi TN 002765	23.02.2023, 54-um-son
3	Tatlimuratov Baymurza Kalkorazovich	2019-yil 18-yanvardagi TN 000850	23.02.2023, 54-um-son
4	Alimov Dilmurod Shuxratovich	2021-yil 14-yanvardagi TN 001866	23.02.2023, 54-um-son
	Xujayeva Kamilla Erkinovna	2019-yil 24-yanvardagi TN 001056	23.02.2023, 54-um-son
	Karimov Ulug'bek Uraltboyevich	2018-yil 27-dekabrda SA 000215	23.02.2023, 54-um-son

Advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyaning amal qilishi va advokatlik maqomi to'xtatib turilgan shaxslar:

T/r	F.I.Sh.	Litsenziya yoki guvohnoma sanasi va raqami	Asos bo'luvchi hujjat sanasi va raqami	To'xtatib turish muddati
1	Sharipov Ulmas Hamroyevich	2019-yil 10-yanvardagi BH 000128	23.02.2023 54-um-son	2023-yil 30-yanvardan 1 oyga
2	Burnasheva Mariya Vilevna	2018-yil 25-dekabrda TN 000107	23.02.2023 54-um-son	sud hukmi qonuniy kuchga kirguniga qadar yoxud reabilitatsiya qiluvchi asoslarga binoan uni jinoiy javobgarlikdan ozod etish to'g'risidagi qaror qabul qilunguniga qadar
3	Rizayev Javohir Jahonovich	2021-yil 8-fevraldagi TN 001890	23.02.2023 54-um-son	sud hukmi qonuniy kuchga kirguniga qadar yoxud reabilitatsiya qiluvchi asoslarga binoan uni jinoiy javobgarlikdan ozod etish to'g'risidagi qaror qabul qilunguniga qadar
4	Pardayev Isomiddin Shamsiyevich	2019-yil 11-yanvardagi TN 000553	23.02.2023 54-um-son	sud hukmi qonuniy kuchga kirguniga qadar yoxud reabilitatsiya qiluvchi asoslarga binoan uni jinoiy javobgarlikdan ozod etish to'g'risidagi qaror qabul qilunguniga qadar

Advokatlik maqomi to'xtatib turilgan shaxslar:

T/r	F.I.Sh.	Buyruq sanasi va raqami	To'xtatib turish muddati
1	Buranova Soxiba Ibragimovna	23.02.2023, 54-um-son	ish davriga
2	Abbosov Zafar Ravshanovich	06.02.2023, 36-um-son	ish davriga

Toshkent viloyat adliya boshqarmasi huzuridagi malaka komissiyasining 2023-yil 27-fevraldagi 4/2023-on yig'ili sh b ayonnomasi hamda Toshkent viloyat adliya boshqarmasining 2023-yil 28-fevraldagi 48-um-on buyrug'i bilan Toshkent viloyat adliya boshqarmasi tomonidan 20.04.2020 yil shud Ulgan shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius U. Niyozovga berilgan TS 0013-raqamli litsenziyani amal qilishi 2023-yil 1-mart kundan 1 (bir) oy muddatga to'xtatildi.

X. Sulaymonova nomidagi
Respublika sud ekspertiza markazi
jamoasi markazning Tashkiliy-nazorat
va tahlil bo'limi boshlig'i Bekzod
Nishonovga otasi
Shuhrat NISHONOVning
vafot etganligi munosabati bilan
hamdardlik bildiradi.

FUQAROLARNING huquq va erkinliklarini himoya qilish hamda ularning davlatga, amaldagi qonunlarimizga bo'lgan ishonchini mustahkamlashga odil sudlovsiz erishib bo'lmaydi. Ya'ni, sud tizimi chinakam "Adolat qo'rg'oni"ga aylansagina, bu borada ko'zlangan maqsadga erishish mumkin.

ISLOHOTLAR SAMARASI

“YANGI O‘ZBEKISTON - YANGI SUD” tamoyilida ham namoyon bo‘ladi



Ta'kidlash joizki, ayni strategiya doirasida odil sudlovni ta'minlash borasidagi ustuvor vazifalar qatorida adolatli sud qarorlari qabul qilinishi orqali xalqning,

shu jumladan, tadbirkorlarning sud tizimiga bo'lgan ishonchini mustahkamlash, har bir shaxs sud va sudyalari siyosida o'zining ishonchli himoyachisini ko'rishiga erishish belgilangan. Ayniqsa, idoralararo elektron ma'lumot almashinuvini yaxshilash, sud majlislarida masofadan turib ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytirish, shubhasiz, fuqarolarga ko'plab qulayliklar yaratish barobarida odil sudlovni ta'minlashga xizmat qiladi.

Farmonda sudyalarning mustaqilligi va daxlsizligi kafolatlarini kuchaytirish, sudga hurmatsizlik qilish va sud ishiga aralashish holatlarining oldini olish bo'yicha samarali mexanizmlarni ishlab chiqish, sud qarorlarining qat'iy ijrosini ta'minlash, bu borada davlat organlari va mahalliy hokimliklarning mas'uliyatini oshirish, sudyalar va sud xodimlarida yuksak muomala madaniyatini shakllantirish orqali sudga murojaat qilgan har bir fuqaro va tadbirkorda suddan, pirovardida esa davlatdan rozilik hissini uyg'otish alohida qayd etilgan.

Bundan tashqari, sudyalarning chinakam mustaqilligini ta'minlash maqsadida ularning ishiga har qanday aralashuv qat'iy jazolanishi, sudyalarning xavotirsiz ishlashi uchun davlat tomonidan barcha sharoitlar yaratilishi belgilangani ham odil sudlovni ta'minlashning muhim omillaridan. Shunday ekan, sudlarning amalda mustaqilligi va sudyalar daxlsizligi ezuq maqsadlar ro'yobi sifatida qonuniylik va adolat barqarorligi kafolati bo'ladi.

Saloxitdin TURSUNOV,
Buxoro viloyat
ma'muriy sudi raisi

© Davomi. Boshlanishi o'tgan sonda

Ular chiqib ketishgach, xonada hamma birday jonlanib, kayfiyati ko'tarilib qoldi. Gulnigor ham "Onangizga qarovchi bormi?" deb so'radi, nahotki meni ozodlikka chiqarishadi yoki onamga qarovchi tayinlasharmikan", – degan xayol bilan birdan: "Voy, kimning nomiga ariza yozishni so'ramabman-ku", deb xonadoshlariga qaradi. Xonadoshlaridan kimdir, "Sudda ishlayman dedi-ku, sudga yozasan", – desa, kimdir "Prezidentimiz yubordi, deb aytdimi, demak – Prezidentimiz nomiga yozish kerak", – dedi. Gulnigor O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga deb ariza yoza boshladi va unda oilaviy ahvolini, qilgan ishidan mingdan-ming pushaymon ekanligini bayon qilib, kimdan, qanday kechirim so'rashim kerak, deb o'y surdi. Agar otam bo'lganida otamdan kechirim so'rar edim, deb o'ylab turib, katta harflar bilan "OTA, meni kechiring" deb yozdi, baxtsiz, ahmoq qizingiz Gulnigor, deb imzo qo'ydi-yu, o'y surib qoldi. Arizani yozib, nima qilish, kimga berishni bilmay, yana "Prezidentimiz menday ahmoqni "qizim" dermikan, men o'zimcha "ota" deyishga haqqim bormi", deb o'ylanib, arizani qayta yozsammi, deb turganida eshik ochilib, nazoratchi kirib keldi va kimlar ariza yozdi, beringlar, men ro'yxatdan o'tkazib, jo'natishim kerak, deganida, bir varaqda yozgan arizasini tutqazdi.

Arizani topshirgach, Gulnigor o'tirgani joy topa olmay qoldi. Nazarida, vaqt to'xtab qolganiday bo'lib, nimagadir tezroq kech bo'lishini, tun o'tib, tong otishiga intiq bo'ldi. Vaqt o'tarmikan deb, xonalaridagi stol ustida turgan kitoblardan birini qo'lga oldi, lekin xayolini jamlab o'qiy olmadi. Joyiga, devor tarafga qarab yotib oldi va xayolida onasini quchib, suykalandi, nazarida onasidan keladigan yoqimli iforni his qilganday bo'ldi. Yig'lab-ko'nib, uxlab-uyg'onib, bir alpozda tongni qarshiladi, qalbiga sokinlik, ozroq taskin inganday bo'ldi. Hamma qatori nonushta qilib bo'lib, kiyimlarini to'g'riladi, sochlari-ni tartibga keltirdi. Xonadoshi – o'zidan to'rt-besh yosh katta qiz, "Ha, Gulnigor xonim, qayerga jo'nayaptilar, mabodo to'yg'a emasmi?" deb hazil aralash kesatiq qilgani ham kayfiyatiga ta'sir qilmadi. Yuragi tipirchilashidan onasi va singlisini qanchalik sog'ingani, ularsiz yashay olmasligini his etdi, qalbi o'ttanib, o'tirib qoldi. Qancha

“ Mehrla mehr yo'li ochilur,
kina kin yo'li.

Bedil

Quyosh kulgan kun

vaqt o'tganini bilmaydi, bir payt nazoratchi eshikni ochib, "Gulnigor Odilova, narsalaringizni olib chiqing, sudga borasiz", deganidagina o'ziga keldi. Eshik yopilishi bilan xonadoshlari birin-ketin u bilan quchoqlashib, "Ilohim qaytib kelmagin", deyishdi.

Gulnigor ortiga qayrilib, xonadoshlariga xayr ma'nosida bosh egdi va nazoratchining oldiga tushib, yurib ketdi va buyruqqa ko'ra, qamoqxona hovlisida turgan hamma tomoni yopiq, oynasi ham panjarali avtomashinaga chiqib o'tirdi. Avtomashina uzoq yurdi, ko'p marotaba o'ngga va chapga burildi va nihoyat to'xtab, eshik ochildi yerga tushgach, bino peshtoqidagi yozuvdan, viloyat sudiga kelib qolganini tushundi.

Sud zalidagi panjara ichida yarim soatcha turib qoldi, nima bo'lishini birovdan so'ray olmadi. Mavhumlik uni tobora siqib borayotgan paytda sud zalining orqa eshigidan uch nafar sudya kirib kelishdi va arizasiga asosan, ishini qayta ko'rib chiqishlarini e'lon qildi. Sud kotibiga tuman xotin-qizlar qo'mitasi raisi kelgan-kelmaganligini, agarda kelgan bo'lsa, sud zaliga taklif etish haqida topshiriq berishdi. Sud kotibi chiqib ketib, jussasi kichikkina, lekin boqishi-yu, yuzida nuri bor qir-qir besh yoshlardagi ayolni boshlab kirdi.

Sud boshlandi, sudya uning sodir etgan qilmishini, tayinlangan ozodlikdan cheklash jazosini o'tashda ham tartibni buzganligini qayd etib o'tdi. Shuningdek, oilaviy ahvoli, onasining betobliligi va doimiy qarrovchiga muhtojligi, singlisi maktab o'quvchisi ekanligini ham ma'lum qildi, so'ng ishda qatnashayotgan prokurorning fikrini so'radi.

Prokuror, Gulnigor Odilova-ning oilaviy ahvolini hisobga olib, sudning uni jazoni o'tash uchun jo'natish haqidagi qarorini bekor qilish, uni ozodlikka chiqarib, xotin-qizlar qo'mitasi kafilligiga berish maqsadga muvofiq ekanligi haqida gapirdi.

Xotin-qizlar qo'mitasi raisi – opa ko'p gapirmadi, lekin yodida qolgani, "Gulnigorning shu holatga tushishida barchamizning aybimiz bor, agar vaqtida biz yordam qo'lini cho'zganimizda bunday bo'lmas edi, sud uni ozod qilib, bizning kafilligimizga bersa, biz barcha choralarini ko'ramiz", deganida birdan ko'ngli bo'shab ketib, unsiz yig'lay boshladi.

Shuning uchun sud o'ziga so'z berganida, yig'idan o'zini to'xtata olmadi, "Meni kechiringlar..., onamga qarashim kerak", deyishdan boshqa gap gapira olmadi.

Sud maslahatxonaga kirib ketdi. Gulnigorga sud xodimi o'zingizga kelib oling, deb piyolada tutgan suvni yutoqib, uzoq vaqt suv ichmagan yosh boladay, to'kib-sochib ichdi.


Sudyalar qaytib kirib, qarorni o'qiy boshlaganida, dastlab, qulog'i g'uvillab, hech narsani eshitmay qoldi. Esida qolgani "Sud zalidan ozod qilinsin", degan birgina jumla bo'ldi, formal xodim panjarani ochib, tashqariga chiqishni ko'rsatdi.

Gulnigor panjara tashqarisiga chiqishi bilan qo'l-oyog'i bo'shashib, holsizlanib borayotganini his qildi, xayriyatki, sudya barchaga o'tiringlar, deb taklif qildi. Shundan keyin sudya barcha bo'lib o'tgan holatlardan xulosa qilishi,

qaytib jinoyat ko'chasiga yaqin yo'lamlasligi, aksincha, hayotini yo'lga qo'yishi kerakligini, xotin-qizlar qo'mitasi raisiga esa, Gulnigorning o'zi va oilasidan doim xabardor bo'lib turish, barcha lozim yordamni ko'rsatish zarurligini tushuntirdi.

Gulnigor hech kimning nazorat-siz, birgina xotin-qizlar qo'mitasi raisi – opa hamrohligida sud binosidan ko'chaga chiqqanida, ozodlikning naqadar totli, eminerkin yashashning qanchalik lazzatli ekanligini chin dildan his etdi. Beixtiyor "Prezident otamga rahmat, hammaga rahmat", – deya pichirlab yig'lay boshladi. Xotin-qizlar qo'mitasi raisiga: "Endi men nima qilay?" – degan ma'noda qaradi. U kishi "Bo'ldi qizim, yig'lama, bugundan boshlab, sen menga singilsan, endi uyingga – onangning oldiga boramiz", deganida uni mahkam quchoqlab oldi.

Opaning xizmat mashinasida uylariga qarab ketib borar ekan, qamoqda o'tirib, o'zini naqadar baxtsiz va nochor sezgan bo'lsa, endi birdan o'zini hammaga kerak, baxtli hayot kechirishga haqli va bunga imkoniyati bor odam sifatida ko'rdi, ko'ngli yorishdi. Avtomashina oynasidan ufqqa botib borayotgan alvonrang quyoshga ko'z uzmay termilib qoldi. Quyosh Gulnigorga kulib turar edi.



“Sudya ma'naviyati, odobi va mas'uliyati” kitobidan

8 SAYYOR QABUL

O'ZBEKISTON Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasining Surxondaryo viloyat bo'yicha boshqarmasi hamda tumandagi Farhod "Muruvvat" nogironligi bo'lgan shaxslar uchun ayollar internat uyi ma'muriyati mas'ullarining internat uyida istiqomat qilayotgan nogironligi bo'lgan 5 nafar shaxsning fuqaroligini tiklab, shaxsini tasdiqlovchi hujjatlarini va tug'ilganlik to'g'risida guvohnoma olishlarida amaliy yordam so'rab qilgan murojaati adliya bo'limi xodimlari tomonidan o'rganildi.

NOGIRONLIGI BO'LGAN SHAXSLARNING HUQUQLARI TIKLANDI

O'rganish davomida haqiqatan ham tumandagi Farhod "Muruvvat" nogironligi bo'lgan shaxslar uchun ayollar internat uyida istiqomat qilayotgan II guruh nogironligi bo'lgan bir nechta fuqarolarning shaxsini tasdiqlovchi hujjatlarini va tug'ilganlik to'g'risida guvohnomalarini yo'qligi aniqlandi. Jumladan, 1951-yilda tug'ilgan Inoyat Raimboyeva, 1954-yilda tug'ilgan Zulayxo Xodjayeva, 1959-yilda tug'ilgan To'yda Abdvoxidova, 1965-yilda tug'ilgan Gulchehra Davlatova, 1969-yilda tug'ilgan Sayyora Xolmo'minovani yillar davomidagi orzusi ushaldi.

Sariosiyo tuman adliya bo'limi tomonidan fuqarolik ishlari bo'yicha Sariosiyo tumanlararo sudiga Fuqarolik protsessual kodeksining 295-moddasiga asosan yuridik ahamiyatga ega bo'lgan faktini aniqlash to'g'risida arizalar kiritildi. Sud tomonidan mazkur ish mazmunan ko'rib chiqilib, tumandagi Farhod "Muruvvat" nogironligi bo'lgan shaxslar uchun ayollar internat uyida istiqomat qilayotgan 5 nafar fuqaroga tug'ilganlik faktini belgilash bo'yicha hal qiluv qarorlari chiqarildi.

Mazkur hal qiluv qaroriga asosan nogironligi bo'lgan ushbu fuqarolarga Sariosiyo tuman adliya bo'limi FHDYo bo'limi tomonidan tegishli tartibda tug'ilganlik haqida guvohnomalar rasmiylashtirildi. Shundan so'ng nogironligi bo'lgan yuqoridagi fuqarolarga tug'ilganlik guvohnomalariga asosan Sariosiyo tuman Ichki ishlar bo'limi tomonidan fuqarolik pasportlarini berishda amaliy yordam ko'rsatildi.

Xurshidjon SHARIPOV,

Sariosiyo tuman adliya bo'limi bosh maslahatchisi



Jumladan, vazir o'rinbosari tomonidan Jomboy tumanining "Xolvoyi" mahallasida sayyor qabul tashkil etildi. Unda kelib tushgan 50 dan ortiq murojaatlarning 10 ga yaqini shu joyning o'zida hal etildi, 7 tasi bo'yicha huquqiy tushuntirish berildi. 24 ta murojaat ko'rib chiqish uchun ish yurituviga qabul qilindi. Toyloq tumanida bugungi kunda 200 mingdan ortiq aholi istiqomat qiladi. Albatta, tuman aholisining ham o'ziga yara sha huquqiy muammolari mavjud. Bu esa tuman xalq qabulxonasi binosida bo'lib o'tgan sayyor qabulda o'z aksini topdi. Mazkur qabulda 152 nafar fuqaro o'zini qiynayotgan masala yuzasidan murojaat qildi. Quvonarlisi, 81 ta murojaat joyida o'z yechimini topdi. 58 ta murojaat bo'yicha huquqiy tushuntirish berildi. 13 ta murojaat ko'rib chiqish uchun nazoratga olindi. Bundan tashqari, fuqarolarga 15 ta sayyor davlat xizmatlari ko'rsatildi, 17 ta fuqarolik holati dalolatnomalari rasmiylashtirilib, 7 nafar fuqaroga tug'ilganlik haqida guvohnomalar topshirildi.



Aholi ehtiyojlaridan kelib chiqib, 3 nafar fuqaroga payvandlash uskunasi, 1 nafariga tikuv mashinasi, 1 kishiga order va 2 nafar fuqaroga charx uskunasi topshirildi. Ijtimoiy-iqtisodiy sharoiti og'ir bo'lgan mahallalarning 5 nafar fuqarosiga ishga joylashtirish bo'yicha yo'llanma berildi, 3 nafari bilan esa shu joyning o'zida mehnat shartnomasi rasmiylashtirildi.

Adliya vazirligi rahbariyati tomonidan respublikamizning oliis va chekka hududlarida fuqarolar va tadbirkorlar uchun sayyor qabullar o'tkazilib, ularning muammolarini tinglash, joyida hal qilish choralari ko'rish an'ana tusini olgan. Shu ma'noda aytganda, vazir o'rinbosari Aktam Muhammadiyevning Samarqand viloyatidagi o'rganishlari Samarqand tumani "Yangi ariq" MFY hududidagi kichik sanoat zonasida faoliyat yuritayotgan tadbirkorlarning muammolarini tinglash bilan boshlandi. A. Muhammadiyev ularning ish faoliyati bilan tanishib, tadbirkorlar va ishchilar bilan muloqot qildi.



ADLIYA odamlar orasida

Ishtixonda bo'lib o'tgan sayyor qabulda esa tuman fuqarolaridan 106 ta murojaat qabul qilindi. Ularning 40 dan ortig'i huquqiy mazmundagi masalalardir. Shuningdek, 5 ta murojaat shu joyning o'zida tuman mas'ullari ishtirokida o'z yechimini topib, 10 ta murojaat huquqiy tushuntirish orqali hal etildi. Qolganlari o'rganib chiqish uchun nazoratga olindi.

Payariq tuman 2-son kasbhunar maktabida tashkil etilgan ommaviy qabul ham jismoniy va yuridik shaxslar uchun maqbul bo'ldi. Unda 60 dan ortiq shikoyat va takliflar kelib tushdi. Shu bois, ularning 10 ga yaqini tuman hokimi va boshqa sektor rahbarlarini jalb qilgan holda ko'rib chiqilib, joyida bartaraf etildi. Tuman adliya bo'limi, davlat xizmatlari markazi, yuridik xizmat ko'rsatish markazi, FHDYo bo'limi hamda mas'ul tashkilotlar vakillari ishtirokida 15 dan ortiq murojaat va shikoyatlar yuzasidan huquqiy tushuntirish berildi. 40 dan ziyodi hal qilish uchun tegishli tashkilotlarga biriktirildi. Qolaversa, fuqarolarga shu joyning o'zida 54 ta sayyor davlat



xizmatlari ko'rsatildi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, sayyor qabulda asosan ijtimoiy ko'mak, bandlik, tibbiy yordam, meros va egalik qilish huquqi, bank-kredit, tadbirkorlik, uy-joy, pensiya va nafaqa tayinlash, soliq qonunchiligi singari sohalarda bo'yicha murojaatlar kelib tushdi. A. Muhammadiyev ayrim hududlarda fuqarolarning murojaatlariga e'tibor talab darajasida emasligi, bu boradagi ishlarni yanada jonlantirish kerakligini alohida ta'kidladi. Binobarin, murojaat mualliflari hamda turli ijtimoiy daftarlarda turgan fuqarolar va xotin-qizlar manfaatlarini ta'minlash masalasiga e'tibor qaratildi.

Mansur HASANOV,

Samarqand viloyat adliya boshqarmasi mas'ul xodimi

"Adolat" milliy huquqiy axborot markazi jamoasi markazning "Inson va qonun" gazetasi hamda "Huquq va burch" jurnali birlashgan tahririyati bosh mutaxassisi **AKMAL TOSHEV**ning vafot etganligi munosabati bilan marhumning oila a'zolariga hamdardlik bildiradi.

INSON
va qonun

MUASSIS:
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ADLIYA VAZIRLIGI

"Adolat" milliy huquqiy axborot markazi nashri

info@adolatmarkazi.uz

2007-yil 3-yanvarda
O'zbekiston
Matbuot va axborot
agentligida
0081-raqam bilan
ro'yxatga olingan



**Bosh
muharrir**

Asliddin
ALIMARDON

TAHRIR HAY'ATI

Alisher Karimov

Furqat Tojiyev

Sevara O'rinboyeva

Yorbek Iskandarov

Diifuza Ergasheva

Tahririyatga kelgan
qo'lyozmalar taqiriz
qilinmaydi va muallifga
qaytarilmaydi.

Navbatchi

Gulbahor Ortiqxo'jayeva

Sahifalovchi-dizayner
Jasur Tojiyboyev

Nashr indeksi: 137

"Inson va qonun" gazetasi hamda "Huquq va burch" ijtimoiy-huquqiy jurnali birlashgan tahririyati kompyuter bazasida teriladi va sahifalandi. A3 bichimida, 2 bosma tabaq hajmda, ofset usulida "KOLORPAK" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Korxona manzili: Toshkent shahri, Yunusobod tumani, 17-mavze, Yangi shahar ko'chasi, 1a-uy

Tiraji – 3930
Buyurtma – 778

Topshirish vaqti – 19:00
Topshirildi – 20:00

MANZILIMIZ:

100115, Toshkent sh.
Amir Temur shohko'chasi
19-uy.

Faks: (71) 233-28-18
Obuna bo'limi:
(71) 233-25-65

Bahosi kelishilgan narxda

1 2 3 4 5